


## Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

### “Tarix va arxeologiya fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
<p data-bbox="145 400 562 612"><b>Moturidiylikka oid qo‘lyozma merosni kataloglashtirish hamda raqamli reyestrni yaratish</b></p> 	<p data-bbox="667 357 1048 392"><b>Tadqiqot shakli:</b> Amaliy.</p> <p data-bbox="667 397 1061 432"><b>Ilmiy tadqiqot natijalari:</b></p> <ul data-bbox="595 437 2092 1002" style="list-style-type: none"><li>- O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan moturidiylik ta‘limotiga oid qo‘lyozmalarning to‘liq ro‘yxati shakllantirilib, ilmiy tavsifi ishlab chiqiladi.</li><li>- Fondagi moturidiylikka oid barcha qo‘lyozmalarning xalqaro standartlarga mos keladigan mukammal ilmiy katalogi nashrga tayyorlanadi.</li><li>- Qo‘lyozmalarning saqlanish holati, o‘lchami va varaqlar soni kabi texnik ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga olgan interaktiv raqamli reyestr platformasi ishga tushiriladi.</li><li>- Qo‘lyozma asarlarning kodikologik xususiyatlari (xat turi, qog‘ozi, muqovasi) tahlil qilinib, asarlarning nodirlik darajasi aniqlanadi.</li><li>- Tadqiqot natijasida moturidiylikka oid avval noma‘lum bo‘lgan yoki kam o‘rganilgan qo‘lyozma nusxalari aniqlanib, ilmiy muomalaga kiritiladi.</li><li>- Qo‘lyozmalar tahlili asosida moturidiylik ta‘limotining tarqalish geografiyasi va mahalliy maktablari (Samarqand, Buxoro, Nasaf) xaritasi va xronologik jadvali ishlab chiqiladi.</li><li>- Soha mutaxassislari va tadqiqotchilar uchun qo‘lyozma ma‘lumotlaridan tezkor foydalanish imkonini beruvchi qidiruv tizimiga ega bo‘lgan raqamli platforma yaratiladi.</li></ul> <p data-bbox="595 1007 2092 1166"><b>Natijalarni sinovdan o‘tkazish.</b> Olingan natijalar <b>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazida</b> sinovdan o‘tkaziladi, ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida <b>O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yich qo‘mitasining</b> xulosasi olinadi.</p> <p data-bbox="595 1171 2092 1331"><b>Ilmiy natijalarni chop etish.</b> Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi</p> <p data-bbox="595 1335 2092 1407"><b>Izoh.</b> Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar <b>O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yich qo‘mitasining</b> qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.</p>